

Jizzakh State Pedagogical Institute



***Journal of Preschool
Education***

***The faculty of pre-school
education***

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING INGILIZ TILINI O'RGANISHDA DRAMATIZATSIYA USULIDAN FOYDALANISH

Valiyeva Yulduz va Fayziyeva Gulhayo

JDPU talabaları

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarga ingiliz tilini o'rgatishda dramatizatsiya, ya'ni sahnalashtirish usullaridan va o'yinlaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: Dramatizatsiya, ingliz tili, MTT, sahnalashtirish ,ertak va hikoyalar,

Maktabgacha ta'lif bolalarni kashf qilish davri hisoblanadi .Bu davrda bolalarni faol, ijodkor hamda ma'naviy yetuk inson qilib yetishtirishning ilk devonchasi desak adashmagan bo'lamiz . Shu sababdan xorijiy tilni o'rgatish ayni shu davrdan boshlanishi maqsadga muvofiq deb topilgan .O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “ Maktabgacha ta'lif tizimi boshqaruvni tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi “farmoni hamda “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi “ qarori Respublikamizda maktabgacha ta'lif tashkilotlari (MTT) qaratilgan katta e'tiborlardan biri bo'ldi. Hozirda barcha xususiy hamda davlat MTT larida xorijiy til o'rgatilmoqda. Bu esa bolalarni ta'lifning keyingi bosqichlarida qiynalmasdan davom ettirishga imkoniyat yaratib beradi.

So'nggi bir necha yil ichida ingliz tilini o'rganish o'z-o'zini rivojlantirishning bir usuli emas, balki zarurat bo'lib qoldi. Ingiliz tili nafaqat mакtablar va universitetlarda balki maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ham ta'limining majburuy tarkibiy qismiga aylandi. Maktabgacha yoshi , ayniqsa ingliz tilini o'rganishni boshlash uchu juda qulaydir. Bu yoshdagi bolalar tili hodisalariga nisbatan sezgirligi bilan ajralib turadi, ular o'zlarining nutq tajribalarini, tilning irlarini tushunishga qiziqishadi. Ular kichik hajmni osongina va qatiy eslashadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u shunchaki stolda o'tirb kitob va daftarlarni varaqlamaydi. Jarayon

zerikarli bo'lmasligi kerak. Bunda dramatizatsiya ya'ni sahnalashtirish usuli ayni muddaodir.

Maktabgacha ta'lif tashkiloti bolalarini dramatizatsiya ya'ni saxnalashtirish faoliyati orqali mashg'ulotlarni tashkil etish samarali yordam beradi. Saxnalashtirilgan ertak va hikoya she'rlar topishmoqlar, tez aytishlar, bayram ssenariylari orqali sahnaviy ko'rinishlar qo'yish bilan birgalikda ingiliz tili mashg'ulotini tashkil etish, bolalar nutqini o'stirishga va ingiliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Dramatizatsiya (dramalashtirish, drama holiga keltirish ya'ni sahnalashtirish) – bu real yoki hayoliy voqealarni tasvirlaydigan materiallardan dramatic spektakl yaratishdir. Ertak va hikoyalarni bolalar ko'pincha o'zlarining ijodiy va rolli o'yinlarida sahnalashtiradilar. Sahnalashtirish uchun ertaklargina olinmasdan badiiy asarlar, xususan she'rlar ham olinadi. Masalan tarbiyachi o'rta guruh uchun asosan harakatni aks erriruvchiasarlar tanlaydi. Sahnalashtirilgan tomoshalarda bolalar faqatgina tinglabkina qolmay balki unda mustaqil ishtirop etadi.

Teatrlashtirilgan faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish jamoani to'g'ri yo'naltirishda pedagog katta rol o'ynaydi. Ingliz tilida tashkil etilgan mashg'ulotlarda pedagog nafaqat ifodali o`qishi, yoki aytib berishi,balki ko`rishi, eshitishi,balki obrazga kirishi, ya'ni aktyorlik va rejissorlik mahoratiga ega bo`lishi zarur.Maktabgacha talim tashkilotlarida ingliz tili mashg'ulotlari sahnalashtirish o'yinlari orqali ham tashkil etiladi. Sahnalashtirish o'yinlarida bolalar o`yin jarayoniga kuchli qiziqish bilan kirib boradilar. Bu jarayonda bolalarning ingliz tilidagi nutq faolligi ,lug`at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mazmunining g'oyaviy-ma'naviy barkamolligi.
2. Badiiy jihatdan mazmundorligi

3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko‘p bo‘lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Mazmuni yaxshi bo‘lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko‘p bo‘lishi.
5. Ifodali o‘qishga mos bo‘lishi.
6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog’langan bo‘lmo g’i zarur.

Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko‘radilar. Masalan, «Sholg’om», «Zumrad va Qimmat», «Bo‘g’irsoq» va boshqalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda (qo‘g’irchoq, soya, soya teatri orqali) sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki maktabgacha ta’mli, tashkilotlarida qo’shimcha faoliyat sifatida o’rgatilib kelinayotgan chet tili ya’niy ingiliz tilini tarbiyalanuvchilarga o’rgatishda dramatizatsiya ya’niy sahnalashtirish usuli mashg’ulotlarni qisqa vaqtichida samarali va unumli tashkil etishga yordam beradi. Chet tillarini organish bolalarga kelajakda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, ular malakali kadr bolib yetishishi, butun jamiyat uchun nafi tegadigan shaxs bolib kamol topishlari uchun ham ahamiyatlidir. Shuning uchun ham bolalarimizga yoshligidan talim berib borishimiz, oqishga qiziqtirishimiz, jamiyatimizdagi har bir bolani nazardan chetda qoldirmasligimiz, organishga qiynalgan bolalar bilan ham alohida shug`ullanishimiz, turli xil drammalashtirilgan o`yinlar bilan e`tiborlarini tortishimiz, chet tillarini o`rgatish davomida muntazam rag`batlantirib borishimiz ularni kelgusidagi talimlari uchun dastlabki qadam boladi, desak adashmagan bo`lamiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar

- 1.Kanton Aargou. Fremdsprachen Lernen und Lehren. Englisch an der Primarschule. Leipzig-2017. S. 238—239.
2. Eine neue Aufgaben - und Leistungsbewertungskultur, U. Gibitz in: Neue Wege im Fremdsprachenunterricht am Beispiel des Rahmenplans für den Englischunterricht in der Orientierungsstufe, L. I. S. A. Schwerin 2001.
3. Voxidov M.Bolalar psixologiyasi .-O’qtuvchi , 1981 – 366 b

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

4. Daminova M. Adambekova T. O'yin mashg'ulotlari. –T.;O'qtuvchi , 1993-96 b.
5. Palmer H.Scientific study and teaching of languages.-London, 1922. 243b
6. David A. j, Eggen , P Kauchak . Methods for Teaching ; Promoting student learning {M} 2002.